



UDK:811.512

Sarvinoz RASULOVA,
PhD, dotsent v.b., Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: sarvina_ok@mail.ru

Professor B.Karimov taqrizi asosida

DETEKTIV QISSALARDA SYUJETNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI

Аннотация

Mazkur maqola badiiy asar syujeti va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida. Maqolada yozuvchi Tohir Malikning qissalari tahlilga tortilgan. Detektiv qissalarda qo‘llangan syujet turlari, sirlilik, tugun ketidan tugun solish kabi xususiyatlar misollar bilan dalillangan. Ayniqsa, tugun ketidan tugun solish yoki “boshqotirmalilik” Tohir Malik qissalari syujetining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Aksariyat detektiv namunalari birgina jinoyat va uni fosh etish bilan bog‘liq murakkab jarayon qalamga olinsa, bir turkum detektiv asarlarda ketma-ket sodir etilgan jinoyatlar tufayli yuzaga kelgan tugunlarni yechish jarayoni o‘z ifodasini topadi.

Kalit so‘zlar: Syujet, sir, jumboq, detektiv syujet, obraz, jinoyatchi, izquvar, voqelik, tugun, epilog, prolog, yechim, kulminatsiya.

ХАРАКТЕРНАЯ ЧЕРТА СЮЖЕТА В ДЕТЕКТИВНЫХ РАССКАЗАХ

Аннотация

Данная статья посвящена сюжету художественного произведения и его специфическим особенностям. В статье анализируются рассказы писателя Тахира Малика. Типы сюжетов, используемые в детективных рассказах, такие как загадка, «узел за узлом», иллюстрируются примерами. В частности, «узел за узлом» или «головомка» – одна из специфических особенностей сюжета рассказов Тахира Малика. В то время как большинство детективных рассказов изображают одно преступление и сложный процесс его раскрытия, серия детективных рассказов выражает процесс распутывания узлов, созданных последовательными преступлениями.

Ключевые слова: Сюжет, тайна, загадка, детективный сюжет, персонаж, преступник, детектив, реальность, кульминация, эпилог, развязка, завершение.

A CHARACTERISTIC OF THE PLOT IN DETECTIVE STORIES

Annotation

This article is about the plot of a work of fiction and its specific features. The article analyzes the stories of the writer Tahir Malik. The types of plots used in detective stories, such as mystery, knot-by-knot, are illustrated with examples. In particular, knot-by-knot or "puzzle" is one of the specific features of the plot of Tahir Malik's stories. While most detective stories depict a single crime and the complex process of uncovering it, a series of detective stories express the process of unraveling the knots created by successive crimes.

Key words: Plot, mystery, puzzle, detective plot, character, criminal, detective, reality, climax, epilogue, prologue, solution, culmination.

Kirish. Badiiy asarda hayotni haqqoniy tasvirlash, zarur g‘oyani ifodalashda syujetning roli beqiyos. Har bir turda, janrda syujet o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Syujet deganda biz aksariyat holllarda ma‘lum voqealar yoki o‘sha voqealarning tizmalarini nazarda tutamiz. Syujet (fransuzcha – predmet, “asosga qo‘yilgan narsa”) badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri sanalib, badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog‘liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi [10], deya ta‘rif beradi D.Quronov. Darhaqiqat, syujet voqealar xarakterlar atrofiga qanchalik jipslashsa, u yoki bu xarakterning, tipning tarixi, o‘sishi, tashkil topib borishi [8] haqida bo‘lsa, syujet shunchalik izchil va muntazam bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili. Mashhur rus dramaturgi N.Pogodin “Mening asarimda voqeani ham, so‘zni ham obraz boshqaradi” deya ta‘kidlaydi. Haqiqatdan ham, badiiy adabiyotdagi qaysi asarni qo‘lingizga olmang, o‘sha asarlarning syujetidan oldin ko‘z oldingizga asarning xarakterlari keladi. “Shaytanat” asarini qo‘lga olganimizda beixtiyor xayolimizga Asadbek, Zaynab, Elchin obrazlari keladi, undan so‘nggina ularning boshidan o‘tgan voqealar

asta-sekinlik bilan gavdalanadi. Demak, badiiy asarda voqealar xarakterlar bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Mo‘jizakor sehra sinoatlarni o‘zida jo etish orqali insoniyatni hayratga solish san‘atning turli sohalariga xos birlamchi xususiyatdir. Zero, murakkab va birmuncha mavhumroq narsa-hodisalar insonga doimo qadrlil va jozibali tuyuladi. Bu fikr insoniyat taqdirining murakkab va rang-barang qirralarini chuqur tadqiq etishga yo‘naltirilgan so‘z san‘atiga, ya‘ni badiiy adabiyotga xosdir. Tohir Malik asarlarida jinoyat va uni fosh etish bilan bog‘liq murakkab jarayonga aloqador katta-kichik sirlar, jumboqlar mavjudki, asarning dunyoga kelishida poydevor vazifasini o‘tagan bu sirsinoatlar kitobxonni voqealar so‘ngigacha qiziqitirib, ortidan ergashtiradi.

Eng asosiysi, jinoyatlar bilan bog‘liq sir detektiv asar voqealarini harakatga soladi, obraz va xarakterlarni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, yozuvchining “Murdalar gapirmaydilar” [4] qissasida Nafisaning, “Talvasa” romanida Akmal Berdiyovning xotini va qizining, “Alvido, bolalik” qissasida Mirqosim Mirtillaevning o‘limi bilan bog‘liq sirlar xuddi shunday mavqega ega. Adibning aksariyat asarlarida biror sirlil hodisa

yoki mavhum jinoyat ishi sodir bo'ladi, so'ng uni qidirish, so'roqlash boshlanadi. Sir hadeganda yechilavermaydi. Oldinda xilma-xil to'g'anoqlar ko'ndalang bo'ladi, avtor yoki avtorning izquvar qahramoni sirli hodisa izidan qidirishda davom etadi. Nihoyat asar oxiriga borib, sir fosh bo'ladi yoki sirli jinoyat izi topiladi.

Tohir Malik qissalarida tugunlar silsilaviyligini kuzatishimiz mumkin. Uning asarlarida jinoyatlar ketma-ket sodir etiladi. Bu jinoyatlar izquvarni ham, o'quvchini ham gungitib qo'yadi. Tohir Malikning "Shaytanat", "Alvido, bolalik", "Talvasa", "Murdalar gapirmaydilar" singari asarlarida qayd qilingan xususiyatlar yorqin aks etgan. Masalan, "Talvasa" [3] romanida Akmal Berdiyrovning xotini va qizi o'ldiriladi. O'g'li esa izziz yo'qoladi. Uning tirikligidan ham, o'lganligidan ham xabar yo'q. Bu jinoyatni sodir etganlar esa talvasaga tushib, juda ko'p insonlarni o'ldirib yuboradilar. "Alvido, bolalik" [5]da Qamariddin maktab o'quvchilari Asror, Dilfuza, G'ayrat, Salimlar bilan ko'priksiz bir begunoh odamni kaltaklab o'ldiradi. Akula ham jinoyatini yashirish maqsadida ikkita odamni o'ldirtiradi.

"Murdalar gapirmaydilar" qissasida ham katta boylikni qo'lga kiritish uchun Nafisa va uning hamkasbi o'ldiriladi, qamoqxonada o'g'rilar bir-birini o'ldirish payida bo'ladi. O'sha yashirilgan boylikka ega chiqish uchun juda ko'pchilik qurbon bo'ladi. Boylik hech kimga vafo qilmaydi, baxt keltirmaydi. Bu ikkala asarda ham uyushgan jinoyatchi to'dalar haqida hikoya qilinadi. Bunday asarlarda jinoyat, ya'ni qotillik ham ko'p va ketma-ket sodir etiladi. Hir bir sodir etilgan jinoyat yoki qotillik asardagi bir tugunni bildiradi. Har bir jinoyat bir-biriga qaysidir ma'noda bog'liq bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tugun ketidan tugun solish yoki "boshqotirmalilik" Tohir Malik qissalari syujetining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Aksariyat detektiv namunalarda birgina jinoyat va uni fosh etish bilan bog'liq murakkab jarayon qalamga olinsa, bir turkum detektiv asarlarda ketma-ket sodir etilgan jinoyatlar tufayli yuzaga kelgan tugunlarni yechish jarayoni o'z ifodasini topadi. "Alvido, bolalik" qissasida birgina jinoyat va uni fosh etish bilan bog'liq jarayon beriladi, "Murdalar gapirmaydilar" va "Talvasa" asarida esa ketma-ket jinoyatlar sodir etiladi, qotillik ham bir nechta bo'ladi. Natijada qissa syujetiga xos tugunlar silsilaviyligi yuzaga keladi, buning natijasida bir necha syujet chiziqlari vujudga keladi.

Akrom Berdiyrov bilan Bo'ronning munosabati, Akula bilan Xanifaning munosabati, Qamariddin bilan Asror, Dilfuza bilan munosabati, Nuriddinning hayoti, Tengiz va jinoyatchilarning hayoti, Nafisa, Matluba, Samandar, Tunsunalining hayotlari asarlardagi syujet liniyalari hisoblanadi. Asar muallifiga esa bu yordamchi tugunlarni belgilab, ularning syujetidagi asosiy tugunga bog'liqlik darajasini aniqlash, asar bosh muammosini yechishdagi o'rnini asosli ravishda ko'rsatib berish vazifasi yuklanadi. Syujetdagi konfliktlar zanjirini yuzaga keltiradi.

Sirli jinoyatni fosh etishdek chigal va serjumboq jarayonni butun murakkabliklari bilan badiiy tadqiq etish ancha mushkul ish. Bu sharoitda asar muallifidan kerak o'rinda jinoyatchi, kerak o'rinda jabrlanuvchi, eng muhimi, mohir izquvar vazifasini ado etish, ular kabi fikrlash, ruhiy, jismoniy qiynoqlarni boshdan kechirish talab qilinadi. Yozuvchi Tohir Malik ana shu fazilatlariga ega. U kerak o'rinlarda jinoyatchi ham, mohir izquvar ham, jabrlanuvchi ham bo'la oladi. Ularning ruhiy, jismoniy qiynoqlari, ichki kechinmalarini boshidan o'tkazadi. Shuning uchun ham uning asarlari o'qishli, jozibali bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Asardagi voqealar rivojini ta'minlovchi va syujetga betakror joziba baxsh etuvchi vositalardan yana biri bu ziddiyatdir. Realistik nasr namunalarida shaxslararo hamda shaxs va jamiyat orasidagi ziddiyatlar o'ziga xos sirlilikni vujudga keltiradi. Mana shu

o'ziga xos sirlilik kitobxonni voqealar rivojini kuzatish sari undaydi. Eng muhimi, bunda insonlar orasidagi anchayin murakkab munosabatlarni idrok etish imkoniyati tug'iladi. Hamma gapni ochiq-oydin aytmaslik, nozik ishoralar orqali muhim xulosalar chiqarish mas'uliyatini kitobxonning o'ziga havola qilish Tohir Malik ijodiga xos xususiyatdir.

Realistik nasrda sirlilik syujet rivojining muhim unsurlari hisoblanadi. Boshqa adib asarlarida sirlilik yaqqol ko'zga tashlanavermaydigan belgi sifatida taassurot uyg'otsa, Tohir Malik qissalarida sirlilik syujetning "joni va qoni" mavqeini egallaydi. "Alvido, bolalik" qissasida shaxslararo ziddiyat tasvirlanadi. Qamariddin ota-onasi tashlab ketgani uchun insonlarning barchasida nafratlanadi. Chunki mehrga zor bo'lgan paytlari unga hech kim mehrini bermaydi, insonlar hatto o'zining tuqqan onasi undan mehrini qizg'anadi. Shuning uchun u insonlardan qasos olishni xohlaydi, odamlardan u alamzada.

"Murdalar gapirmaydilar", "Talvasa" asarlarida esa ham shaxslararo, ham shaxs va jamiyat orasidagi ziddiyatlar tasvirlanadi. Bo'ron hayotdagi adolatsizlik, nohaqliklardan to'ygan. U Akmal Berdiyrov va u yashayotgan jamiyatdan norozi. Tengiz ham odamlardan va jamiyatdan, taqdiridagi yovuzliklar, nohaqliklardan to'ygan, bezgan. Unda ham odamlar va jamiyatga nafrat kuchli. Taqdirining ayanchli bo'lishiga, hayotining izdan chiqishiga odamlar va jamiyatni aybdor deb biladi. Yozuvchi Tohir Malik bu ikkala asarda ham ziddiyatlarni o'rnida, ishonarli tasvirlay olgan.

Yozuvchiga omad keltiradigan muhim shartlardan yana biri – detektiv asar syujetida sir saqlay olish mahoratiga ega bo'lishdan iboratdir. Jumladan, adib qissalarining mutolaasi chog'ida kitobxon eng so'nggi daqiqalargacha jinoyatchi kim ekanligini bilolmay, tang qolganicha, asar xotimasi sari oshiqadi. Bungacha qissa qahramonlarining har biridan gumonsirashga ulguradi. Asarda o'quvchi gumonsiramagan, shu bo'lishi kerak deya o'ylamagan bir yoki ikki obraz qoladi, xolos. Hayratlanarli joyi shundaki, xotimada kitobxonda yaxshi taassurot qoldirmagan kishilar emas, balki u betakror odamlar qatoriga qo'shgan kimsalardan biri jinoyatchi ekanligi ayonlashadi.

"Talvasa" va "Murdalar gapirmaydilar" asarlarida ham yozuvchi sir saqlay olish mahoratini namoyon etgan. Asarni o'qiyotgan vaqtda Nafisaning o'limida otasidan (Toshbolta), eridan (Samandar), o'gay onasidan (Adolat), o'ynashi Tursunalidan, uning xotini Matlubadan shubha qilamiz. Qotil shulardan biri ekanligiga ishonamiz. Biroq asar so'nggiga kelganda biz shubha ham qilmagan, o'zi qamoqxonada jazosini o'tayotgan Koshak ismli jinoyatchi bu ishni qilganini bilib olamiz. Koshakning qotil bo'lishi xayolimizga ham kelmagan edi.

Chunki u turmada jazo muddatini o'tayotgan bo'lsa, qanday qilib Nafisani o'ldirishi mumkin? Nima uchun? Buning barchasiga javob bitta – katta boylik. "Talvasa" romanida Akmal Berdiyrovning xotini va qizining o'limida ham mayda-mayda o'g'rilardan shubhalanamiz. Biroq qotilning kimligini Akmal Berdiyrovning o'zi yaxshi biladi. Lekin bu sirni asarning oxirigacha tishining kavagida saqlaydi. Faqat qotilning o'zi bilan yuzma-yuz ko'rishgandagina sirni fosh qiladi.

Bunday yaxshi gaplarni "Alvido, bolalik" qissasi haqida aytolmaymiz. Chunki yozuvchi qotillik sodir etilayotganda barchasini oshkor etib qo'yadi. YA'ni Qamariddin Mirqosim Mirtillaevni kaltaklab o'ldiradi. Bolalar ham buni o'z ko'zlari bilan ko'radilar, hatto kaltaklashda ishtirok etadilar. Jinoyatchining kimligi barchaga ma'lum. Yozuvchi qotilni sir saqlay olmagani. Barchaga qotilning kimligi ayon bo'lgandan keyin asarni qanday qilib qiziqib, betoqatlik bilan o'qish mumkin? Mazkur asarda yozuvchi detektiv syujetning xususiyatlaridan biri sir saqlay olishdan unumli foydalana olmagani. Qayd qilinga jihatlariga ega detektiv namunalari muallifi o'z asariga sarlavha qo'ygandayoq

jinoyatchi kimu jinoyat qanday sodir etilganligidan ogoh bo'ladi. Ammo o'quvchi diqqatini tortish istagi bu ogohlilikni asar so'ngigacha sir tutishga undaydi. Bu, o'z navbatida, yozuvchidan ulkan mahorat va sabot talab qiladi.

Tohir Malik o'z asari uchun mavzuni ham yaxshi tanlaydi, asar syujetidagi asosiy va yordamchi tugunlarni ham belgilaydi va eng muhimi jinoyatchini, uning kirdikorlarini, qilmishlarini o'ta ishonarli dalillar orqali fosh etadi. Izquvarning qo'liga jinoyatni fosh etishda ishonchli, hech kim shubha qilmaydigan dalillarni tutqazadi. Demak, dalillash va ishonirish – so'z san'atining, ya'ni badiiy adabiyotning eng qudratli qurolidir.

Syujet tugunini mantiqiy xulosalar asosida ochish, kitobxonni lol qilib qo'yadigan dalillardan o'z o'rni va vaqtda foydalanish orqali jinoyat sirini ishonarli tarzda fosh etish adibga xos yana bir xususiyatidir. Jinoyatchi jinoyat hayotga qanday favqulodda qadam qo'ygan bo'lsa, shunday favqulodda holatda g'ayriinsoniy turmush tarzi, ya'ni jinoyat faoliyat bilan xayrlashishi mumkin. Jinoyatchining o'zini poklashga intilishi, hidoyat sari yuz burishini qalamga olish yozuvchidan ulkan mahorat va mas'uliyat talab qiladi. Chunki g'ayriqonuniy hayot tarziga ko'nikib qolgan odamlarni insonparvar va vatanparvarga aylantirish ancha qiyin. Tabiiyki, bu jarayon real hayotiy zaminga, dalillarga tayanishi lozim.

Tohir Malikning asarlaridagi qahramonlarning deyarli barchasi asar so'ngida insonparvar, yaxshi odamga aylanadi. Masalan, "Murdalar gapirmaydilar" qissasida Tengiz jinoyat olami bilan butunlay xayrlashib, hidoyat yo'liga kiradi. "Alvido, bolalik" qissasidagi Qamariddin ham oxir oqibat hayotda o'z yo'lini topadi. "Shaytanat" qissasida ham Asadbek asar so'ngida hidoyat yo'lini tanlaydi. Yozuvchi barcha asar qahramonlarining hidoyat yo'liga kirishini ishonarli qilib tasvirlaydi. Jinoyatchini hidoyatga chorlash vositasi sifatida talqin qilguvchi ruhiy, ma'naviy hamda moddiy omillarning ishonarli tasviri kitobxonning asarni ayri-ayri e'tibor bilan qabul qilishiga zamin yaratadi.

Yozuvchi Tohir Malik o'z asarlarini yaratishda ko'proq tayyor, hayotiy syujetlardan foydalanadi. Shuning uchun bo'lsa kerak uning asarlarini o'qigan kitobxonlar asar qahramonlarini kimlargadir o'xshatadilar. Syujetni tashkil etuvchi voqealar bir-biri bilan turli tarzda bog'lanadilar. Ba'zilar bir-biri bilan vaqt orqali bog'lansa – xronikal (yillarga asoslangan) syujet, ba'zilar sabab-oqibat orqali bog'lansa – konsentrik (bitta umumiy markazga yig'ilmoq) syujet bo'ladi. Ba'zi asarlarda esa bu ikki syujet birlashadi, ya'ni xronikal-konsentrik syujet paydo bo'ladi. Tohir Malikning "Alvido, bolalik" qissasida xronikal syujet elementlari mavjud. Asar Qamariddin bilan yozuvchining suhbatidan boshlanadi. Keyin esa jinoyatning sodir etilgan haqida hikoya qilinadi.

XX asrning 80-yillari oxiri tarix sahifalariga "jamiyatdagi tub o'zgarishlar, qayta qurish davri" nomi bilan muhrlandi. Bu davrda o'z jinoyatlariga oshkora tus berib, uyushgan jinoyat to'dalar ko'rinishida ish olib borayotgan kattalarga havas qilibmi, ergashibmi – o'smirlar orasida ham g'ayriqonuniy xatti-harakatlar avj olib ketdi. O'smirlar orasidagi jinoyatchilik davrning eng katta muammolaridan biriga aylanadi. O'z-o'zidan adabiy jarayonda ham, matbuotda ham bu muammoga e'tibor kuchaydi. Tohir

Malikning "Alvido, bolalik" qissasi bu muammoni badiiy tadqiq va tahlil etishga bag'ishlangan ancha mukammal izlanishlardan biri sifatida e'tirof etildi. Asarda qillik yuz berganidan so'ng izquvar mayor Maqsud Soliev qotilni izlashga tushadi. Shundan so'ng voqealar shiddat bilan rivojlanadi. Qahramonlar talvasaga tushadilar. Qotillikni sodir etgan Qamariddin esa xatolar qilishni boshlaydi. Va shu xatolar unga yana qamoqxona eshiklarini ochadi.

"Murdalar gapirmaydilar" qissasida esa konsentrik syujet elementlarini uchratish mumkin bo'ladi. Asarning boshlanishida qotillik sodir etiladi. So'ng asar qahramonlari tasvirlanadi. Tursunalining qamoqqa tushishi, Nuriddin bilan Tengizning tanishuvi, Nafisa, Matluba, Omonullo, Toshbolta, Adolat, Samandarlar hayot yo'llari izchilikda beriladi. Abduqayumning hayoti esa alohida bir syujetga o'xshaydi. U nogiron bo'lishiga qaramasdan izquvar Omonulloga jinoyatni ochishda katta yordam beradi. Qissada sovetlar tuzumi davridagi qamoq hayoti, jinoyatchilarning ruhiy olami, o'shu davrdagi ijtimoiy hayot o'z aksini topgan.

"Talvasa" romanida esa har ikki syujetning jamlanmasi, ya'ni xronikal-konsentrik syujet elementlari mavjud. Asar 29 aprel soat 12.30 da shaharning mag'rib tomonida yuz bergan qotillik bilan boshlanadi. Keyin 30 aprel voqealari soatlari bilan beriladi. Undan so'ng asar qahramonlarining hayoti, yashash tarzi hikoya qilinadi. Akula, Bo'ron, Graf, Akmal Berdiyurov, Xanifa, Soli Murodov, Shavkat, Baron, Tal'at, Afro'za va boshqalarning hayotida sodir bo'lgan aynanchli voqealar beriladi.

Bundan ularning qotillikka qanday aloqasi borligi, qanday aralashib qolganligi oydinlashadi. Mana shu holatga kelgunlaricha ularning kim va qanday inson bo'lganliklari hikoya qilinadi. Mazkur asar roman janriga mansubligi uchun ham unda voqealar ko'p, qahramonlari ham xilma-xildir. Ushbu asarda qotilliklar ham juda ko'p. Kalavanning uchini topish, jinoyatni fosh etish ham murakkabdirlar. Biroq bu vazifani Soli Murodov va uning yordamchisi Tal'atlar bekamu ko'st ado etadilar.

Xulosa. Badiiy asar voqealari xarakterlar, ularning kelib chiqishi, rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lsa, syujet shunchalar izchil bo'ladi. Yozuvchi Tohir Malik asarlari syujeti tabiatiga xos sirlilik, tugunlar silsilaviyligi, tasvir sur'atining shiddatkorligi, bayon ustuvorligi, fosh etish san'ati singari xususiyatlar uning barcha asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Adib asar voqealarini inson hayotining dramatik holatlarga to'la onlaridan tanlaydi.

Tohir Malik asarlari syujetida makon va zamon muammosi juda muhim ahamiyatga ega. Jinoyat sodir etilgan joy, vaqt asarda jinoyatni ochishda muhim sanaladi. Izquvarlar jinoyat sodir etilgan joydan ashyoviy dalillar topadi. Jinoyat qachon va nima maqsadda sodir etilganligini aniqlashga kirishadi. Jinoyatni ochishda, jinoyatchini qo'lga olishda bu jihatlarning ahamiyati beqiyosdir.

Yozuvchining eng katta vazifasi zukko izquvarni muhitga uyg'un holda harakatga solish orqali jinoyatchining iflos basharasini fosh etishdan iborat ekan, bu jarayonda jinoyatning chiqur ijtimoiy zaminga egaligi, uni fosh etishning teran mantiqqa asoslanganligi, obraz va xarakterlar harakatining puxta dalillanganligi asar muvaffaqiyatini ta'minlash uchun kifoya qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Adabiyot nazariyasi. – T.: Fan, 1979.
2. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. – T.: Yangi nashr, 2010.
3. Malik Tohir. Talvasa. – T.: Sharq, 2007.
4. Malik Tohir. Murdalar gapirmaydilar. – T.: Sharq, 2004.
5. Malik Tohir. Alvido, bolalik! – T.: Adolat, 2003.
6. Normatov U., Qo'shjonov M. Mahorat sirlari. – Toshkent, 1968.
7. Normatov U. Ijodkorning daxlsiz dunyosi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2009.
8. Qo'shjonov M. Saylanma. 2-jild. – Toshkent.: Adabiyot va san'at, 1983.
9. Qo'shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati. – Toshkent.: G'afur G'ulom, 1988.
10. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent.: Xalq merosi, 2004.
11. Rasulova S. The Portrait of Earth and Sky in Fantastic Stories.
12. Abjalova, Manzura, et al. "Determination of Stylistic Features of Idioms in Uzbek Language." 2025 10th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK). IEEE, 2025.
13. Madina, Bolliyeva. "Badiiy asarlardagi maktublarning g'arbonsa va sharqona tarannumi rasulova sarvinoz sadatovna, toshkent davlat ona tili va adabiyoti universiteti katta." Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (2024): 559